

ЧЕТ ТИЛИДА НУТКИЙ КО‘НИКМALARNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOGA ASOSLANGAN YONDASHUV TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tojiboyeva Shohista Komiljonovna
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Chet tilida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan yondashuv texnologiyalaridan foydalanish haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda leksik ko‘nikmalarni shakllantirish va nutqni o‘rgatishning muhimlilik darajasining ahamiyati borasida fikr-mulohazalar berildi. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda ingliz tilining grammatikasi hamda metodikasining tutgan o‘rni va vazifalari bayon etildi. Nutqning psixofiziologik mexanizmlarining nutqni rivojlantirishdagi ta’siri atroficha ochib berildi. Ingliz tilida og‘zaki nutqdan foydalanishda innovatsion uslublarni qo‘llanilishi borasidagi fikrlar haqida mulohazalar yuritildi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda olib borilayotgan rejalar to‘g‘risida atroficha to‘xtalib o‘tildi.

Tayanch so‘zlar. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarining xususiyatlari, psixofiziologik mexanizmlar, innovatsion uslublar, leksik ko‘nikmalar, nutqni o‘rganishning muhimlilik darajasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Таджибаева Шохиста Комилжоновна
является докторантом Кокан ГПИ

Абстрактный. Подробная информация об использовании технологий проблемного подхода в развитии навыков говорения на иностранном языке. Высказаны мнения о важности формирования лексических навыков и уровне значимости обучения речи в развитии речевых навыков. Объяснены роль и задачи английской грамматики и методики в развитии навыков разговорной речи. Детально раскрыто влияние психофизиологических механизмов речи на развитие речи. Обсуждались мнения об использовании инновационных методов в использовании устной речи на английском языке. Подробно говорилось о планах, проводимых в нашей стране по развитию навыков устной речи.

Основные слова. Особенности навыков устной речи, психофизиологические механизмы, инновационные методы, лексические навыки, уровень значимости обучения речи.

USING PROBLEM-BASED APPROACH TECHNOLOGIES IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS IN A FOREIGN LANGUAGE

Tojibayeva Shohista Komiljonovna
doctoral student of Kokan SPI

Abstract. detailed information on the use of problem-based approach technologies in the development of speaking skills in a foreign language. Opinions were given on the importance of the formation of lexical skills and the level of importance of teaching speech in the development of speech skills. The role and tasks of English grammar and methodology in the development of speaking skills were explained. The impact of psychophysiological mechanisms of speech on the development of speech was revealed in detail. Opinions on the use of innovative methods in the use of oral speech in English were discussed. It was discussed in detail about the plans being carried out in our country for the development of oral speech skills.

Basic words. Features of oral speech skills, psychophysiological mechanisms, innovative methods, lexical skills, level of importance of learning speech.

KIRISH

Hozirgi kunda chet tilini o'rganish hamda o'rgatish masalasining dolzarblilik ahamiyati tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, bu borada birinchi navbatda chet tilidagi og'zaki nutqni o'rganish, uni har jahbada tatbiq etish va keng miqyosda rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda chet tiliga bo'lgan munosabat juda ham jadal rivojlanmoqda. Nafaqat oliv ta'linda, maktab va kollej, litseylarda balkim mактабгача bo'lgan ta'linda ham chet tillariga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Chet til o'qitish ruhshunoslarining nazariy fikr-mulohazalariga ko'ra, nutq muloqot jarayoni emas, so'zlash yoki gapishtish ham emas, nutq- gapishtish yang'lig' faoliyat chog'ida fikrning ro'yobga chiqishi va ifoda qilish usulidir.

Chet tilini o'rganishda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shakkantirishning eng samarali vositalaridan biri muloqot jarayoni hisoblanadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda bugungi kunda innovatsion mexanizmlar, uslublar yordamchi vosita sifatida ham keng miqyosda foydalanilmoqda. Umumiy qilib aytganda, og'zaki nutqni rivojlantirishda metodik uslublarga tayanish hamda leksik ko'nikmalarini chuqur egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq murakkab jarayondir, uni o'rganishda va ifodalashda ko'plab nazariy hamda amaliy bilimlarga tayangan holda ish yuritish lozim. Og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish masalasi yuqori sur'atdagi jarayon hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Og'zaki nutq jarayoni aqliy faoliyat hisoblanadi va u nutqni tinglash qobiliyatini, o'yash, mulohaza qilish kabi psixologik mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishda tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini o'rganish hamda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda Oliy va o'rta maxsus ta'linda chet tilini o'rganish va o'rgatish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bunda asosan gapishtish ko'nikmasini rivojlantirish ahamiyatli hisoblanadi.

Og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish, ularni dars jarayonlarida faol darajada qo'llash muhimdir. Bu innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad, o'quvchilarni mantiqan fikrlab, berilayotgan mavzu doirasidagi savollarga musatqil javob berish, o'z-o'zini mustaqil ravishda baholashga qaratilgan. Umuman olganda innovatsion metodlar nafaqat og'zaki nutq

ko'nikmalarini balki, ingliz tilini o'rganishdagi keying uchta aspektida ham (o'qish, yozish va tinglab tushunish) qo'l keladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qituvchilarimiz Amerika Qo'shma Shtatlari va Angliyaning pedagogik tajribalariga tayangan holda innovatsion uslublardan foydalanishmoqdalar. Albatta, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradigan uslublarni kengroq yoritib berish muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan usulublardan "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving), "Tezkor javob" (Quick answers), "Chigil yozdi" (Warm-up exercises), "Hikoya zanjiri" (A chain story), "Rolli o'yinlar" (Acting characters) kabilari og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darslarda bunday innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni, hamda o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Chet tiliga bo'lgan ehtiyoj yurtimizda yuqori darajada rivojlanmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yilning 6-maydagi chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ko'plab yangi loyihalar yuzasidan suhbat bo'lib o'tdi. Oliy ta'limda ham, maktab, kollej, litseylarda va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham chet tillarini rivojlantirish borasidagi ishlar to'g'risida so'z yuritildi.

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ham barcha muassasalarda turli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga saboq berilmoqda. Bular dan eng muhimi "Nutq o'stirish mashg'ulotlari" dir. Nutq o'stirish bolalarning so'z boyligini yanada oshirishga, muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, bolaning tafakkurini mukammallashishiga yordam beradi. Tilning barcha jarayonlarining o'ziga xos jihatlari, o'rganish metodlari va mexanizmlari mavjud. Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ham o'z mexanizmlari bordir.

Og'zaki nutqni tilda ifodalash uchun ma'lum bir psixofiziologik xususiyatlar muloqot qiluvchining nutqida rivojlangan bo'lishi kerak. Og'zaki nutqning psixofiziologik mexanizmlarini E.I.Passov o'z taddiqotlarida atroflicha yortilib o'tgan. Bu mexanizmlar 6 ta turga bo'linadi va ularning barchasini og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi uzviy bog'liqligi ahamiyatini to'laligicha ochib berish muhim omillardan biridir:

Reproduksiya mexanizmi. Nutq jarayonida ko'pgina elementlar to'laligicha tayyor holda qo'llaniladi, ammo ba'zilariga esa yangitdan yangiliklar kiritilishi mumkin. Bu mexanizm orqali og'zaki nutqni ifodalovchi elementlarning qay tarzda qayta ishlab chiqilishi hamda foydalanishini bilishimiz mumkin. Nutq ifodalarini qayta qo'llash yoki o'zgartirmay foydalanish mumkin.

Tanlov mexanizmi. Mexanizmning bu turida og'zaki nutqdagi elementlarni to'g'ri tanlov darajasida ishlatilishiga ko'proq ahamiyat berishimiz lozim. Muayyan nutq holatiga ko'ra uni maqsadli ifodalashga urg'u berish kerak.

Birlashtirish mexanizmi. Yuqoridaq mexanizmlarga qaraganda murakkabroq tushunchaga ega hisoblanadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini kichik birliklari yig'indi bo'lishi ham mumkin. Birlashtirish mexanizmi yozma va og'zaki nutqda ham ishlatiladi, lekin uning asosini nutqning katta birliklari tashkil etadi.

Tuzish mexanizmi. Bu mexanizm og‘zaki nutq ko‘nikmalarining rivojlanishda yetakchi rolga ega hisoblanadi. Ya’niki, fikrini ifodalovchi shaxs bunda qoidalarni qisman chetlab o‘tgan holda nutqiy faoliyat olib boradi. Lingvistik nazariyalarga suyanmagan holda, bevosita nutqiy matn ifodalash mumkin.

Oldindan sezish mexanizmi. Bu mexanizmda nihoyatda og‘zaki nutq ko‘nikmalarining xususiyatlari yuqori darajada qo‘‘lanilishi lozim. Chunki bu mexanizmning asosini, oldindan qanday matnni yoki bo‘lmasa sintagmani ifodalashni basharot qilish xususiyatiga ega bo‘lish lozim. Ya’niki, til materiallarini ishlatalishda jumllalarni qanday davom ettirishni oldindan ko‘ra olish lozim.

Diskursivlik mexanizmi. Bu mexanizm mantiqiy fikrlashga asoslangan bo‘lib, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini mukammal egallagan ifodalovchilar uchun xos hisoblanadi. Bunda suhbatdoshdan noverbal nutqni ham takomillashtirish, unga munosib javob qaytarish vazifasi yuklatiladi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda albatta leksik ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘ziga xos o‘rn mavjud. Bu ikkala tushuncha birgalikda, bir-biri bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

“Leksik ko‘nikma” atamasi metodist olimlar tomonida batafsil tushuntirilgan. Leksik ko‘nikma to‘g‘risidagi ilk nazariyalarini bizga birinchilardan bo‘lib, S.F.Shatilov aytib o‘tgan. Uning aytishicha, leksik ko‘nikma ikki qismdan tashkil topgan metodik tushuncha va u nutqda so‘zni ifodalash degan ma’noni beradi. Ko‘nikmaga erishish mukammal jarayon, shuning uchun, ko‘nikmalarni egallahda bizdan turli mashqlarni ifodalash zarur bo‘ladi.

Leksik ko‘nikmalarni shakllantirishda bir necha bosqichdagи vazifalarni bajarish lozim.

1. So‘z, so‘z birikmasi va gapni ifodalash. Bu jarayonda so‘zlarni og‘zaki nutqda jamoa shaklda yoki bo‘lmasa yakka tartibda ifodalash mumkin. Natijasi albatta turli xil bo‘lishi mumkin. Lekin maqsad o‘shadir.

2. Yangi so‘z ishtirokida so‘z birikmalarini og‘zaki nutqda tuzish. Bu mashq nutq yuritishning o‘rganishning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Buni o‘rgatuvchi orqali bajarish, o‘rganish samaradorligining ahamiyatini yanada oshirishda yordam beradi.

3. So‘zni turli nutq namunalarida qo‘llanilishi. Bu operatsiyada ham nutq birligi o‘rgatuvchining buyrug‘i asosida bajariladi. Mashqni guruh, juft va yakka tartibda amalga oshirish mumkin. Ta’sir doirasi ishtirokchilarning bilimiga bog‘liqdir.

4. So‘zni ko‘rish orqali idrok etish. Og‘zaki nutqda birinchi navbatda so‘z tovush tarzida o‘rganiladi, keyin shakli o‘zlashtiriladi. Bunda og‘zaki nutq ko‘nikmalaridan foydalilanilgan holda mustaqil ravishda operatsiyani bajarish mumkin,

5. Leksik birlikni bosma matnga tayanib, mashqda o‘zlashtirish. Bunda mavzu doirasidagi mazuga oid so‘zlar izlanadi hamda tahlil qilinadiva ularni o‘qish orqali mukammal egallanadi.

6. So‘zni yozish. Bunda o‘rgatuvchi nutq birligini tushuntirib, yoritib beradi, uni yozishdan esa asosiy maqsad so‘zni yodda tutish ekanligini eslatishdir. Leksik operatsiyalarni og‘zaki nutqda erkin qo‘llanishi uchun taqdimot bosqichlari bilangina kifoyalanmaslik lozim. A.N.Leyontevning fikriga ko‘ra, “mustahkamlangan operatsiyalar” ko‘nikma deb ifodalananadi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda leksik ko‘nikmalarning shakllantirishning dolzarbliliги muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanilayotgan mashq va operatsiyalar nutqni rivojlantirishda muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun operatsiyalarni to'g'ri yo'naltirish og'zaki nutqda asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Nafaqat leksik ko'nikmalar balki, grammatik hamda metodik ko'nikmalar ham tildagi og'zaki nutq darajasini rivojlantirishda, uning xususiyatlarni shakllantirishda aloqadorlikni ta'minlaydi.

Leksik, grammatik hamda metodik birliklarni qo'llashda ba'zi kamchiliklardan holi bo'lishga, yuqori til birliklarini og'zaki nutqda ravon va aniq ifodalash mavjud bo'lib kelgan muammolarni bartaraf etadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari sifatida ko'rsatilgan bu ko'nikmalar hamda psixofiziologik mexanizmlarni og'zaki nutq ko'nikmalarida qo'llash va ifodalash ko'pgina muammalarning yechimi sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari hamda jihatlari va unga asos bo'ladigan boshqa lingvistik ko'nikmalar ko'rib chiqildi. Og'zaki nutqni shakllantirishdagi eng muhim jihatlar bu keyingi yillarda mamlakatimiz miqyosida olib borilayotgan qator ishlar natijasi deb hisoblasak ham bo'ladi. Chunki asosiy urg'u chet tillarida so'zlashni yo'lga qo'yish, nafaqat o'z ona tilimizda balki boshqa chet tillarda ham ravon va go'zal so'zlashish mahoratini oshirishga qaratilgan. Bu borada olib borilayotgan ishlar zamirida esa albatta mehnat yotibdi.

Til-inson ko'zgusidir. Shunday ekan uni mukammallashtirishga ko'proq ahamiyat bermog'imiz lozim. Og'zaki nutq ko'nikmlarini rivojlantirish chet tili sohasidagi asosiy istiqboli jabhalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda turli xil zamonaviy hamda innovatsion metodlarga tayanib ish ko'rish va ularni fanda tatbiq etish muhimdir. Innovatsion metodlar orqali nutqning rivojlanishini ta'minlash samaralidir. Og'zaki nutq ko'nikmalarini o'rgatish va o'rganish darajasini muhimliligi ko'pgina jabhalarda o'z isbotini topib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov.J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, 1996
2. Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", (o'quv qo'llanma). Toshkent. Sharq nashriyoti. 2003-yil.
3. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy. 2006-yil.
4. Zaripova R.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma,- Т.: O'qituvchi,1986.
5. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению- М., Русский язык. 1989
6. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. 1977
7. Djamilova N.N. "Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" -Т.; TDPU,2017